

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI**

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan rejaga muvofiq, **2026-yilning 26-noyabr kuni** O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida **“O‘zbekiston madaniyati va san’ati: inklyuziv ta’lim va integratsion jarayonlar”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi.

Anjumanda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sho‘balar tashkil etiladi:

1. Inklyuziv ta’lim va xoreografiya san’ati.
2. Zamonaviy san’at va jamiyat: madaniy qadriyatlarning transformatsiyasi.

Mualliflar uchun ma’lumotlar

Anjumanda respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda soha mutaxassislar ishtirok etishlari mumkin.

Ishtirok etish shakli: offlayn, onlayn.

Anjumanning ishchi tillari: o‘zbek, rus va ingliz.

Maqolani rasmiylashtirish talablari:

1. Matn hajmi – 5-7 betdan ko‘p bo‘lmasligi talab etiladi.
2. Microsoft Word formatida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattalikda, 1,5 intervalda, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm joy qoldirib yoziladi, A4 formatda, defis qo‘yilmaydi, sahifalar raqamlanmaydi.

Muallifning ismi, familiyasi, tashkilot nomi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni maqola yozilgan tilda (o‘ng tomonda) ko‘rsatiladi.

Maqola sarlavhasi katta harflarda, qalin shrift bilan yoziladi.

Sarlavhadan keyin 3-4 qatorli annotatsiya va kalit so‘zlar (6 ta so‘zdan oshmasligi kerak) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Matnda havola an’anaviy shaklda belgilanadi. Adabiyotlar ro‘yxati (6 tadan kam bo‘lmasligi kerak) maqola oxirida beriladi.

Materiallarning mazmuni, saviyasi va keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, plagiatga yo‘l qo‘yilmaganligi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir.

Taqdim etilgan maqola avval boshqa nashrlarda chop etilmagan bo‘lishi kerak. Anjuman talabiga mos kelmagan va ko‘rsatilgan muddatdan keyin yuborilgan maqolalar qabul qilinmaydi.

Maqola elektron variantda **2026-yilning 1-oktabriga qadar** tahrirdan o‘tkazilib, Xudoynazarova Shaxzoda Tursunovna: +998908215444 telegram raqamiga yuborilishi kerak.

Tashkiliy qo‘mita